



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER


p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal



Samarqand-2025

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR


XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2025



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Juliboy ELTAZAROV

f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Roxila RUZMANOVA

f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti rektori (O‘zbekiston);

Hakim XUSHVAQTOV – f-m.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

Akmal AHATOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha
prorektori (O‘zbekiston);

Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Suyun KARIMOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Musa YULDASHEV – f.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Hotam UMUROV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston);

Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya);

Abdusalam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya);

Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya);

Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya);

Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH);

Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon);

Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya);

Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Shahnoza XUSHMURODOVA – Phd, dotsent
(O‘zbekiston);

Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent
(O‘zbekiston);

Istoda RASULOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston);

Mas’ul muharrir: **PhD, dotsent Zokir
BAYNAZAROV** (O‘zbekiston);

Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV**
(O‘zbekiston).



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Заместитель главного редактора:

Жулибой ЭЛТАЗАРОВ

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Рохила РУЗМАНОВА

к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор,
ректор Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф.-м.н., профессор,
проректор по научной работе и инновациям
Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор,
проректор по международному
сотрудничеству Самаркандского
государственного университета имени
Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муродкасым АБДИЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент
(Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Хотам УМУРОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуселам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор
(Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор
(США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор
(Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Истода РАСУЛОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – Phd (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD, доцент Зокир
БАЙНАЗАРОВ (Узбекистан)**

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ
(Узбекистан)**



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)

Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)

Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Khotam UMUROV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abdusalam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJAOGU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis CHAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA (Uzbekistan);

PhD. Feruza MANUKYAN (Uzbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rakhmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hotam UMUROV (Özbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Istoda RASULOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKİROV** (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

TURKIY XALQLARNING IJTIMOIIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

Emrah YILMAZ

ÖZBEKİSTAN’IN KÜRESEL BAŞARILARINA SOSYOKÜLTÜREL BİR YAKLAŞIM VE
2024 YILININ ANALİZİ 8

МУСАЕВ Даянат Муса оглы

ЗНАЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ АЗЕРБАЙДЖАНА С УЗБЕКИСТАНОМ ДЛЯ
ОБЪЕДИНЕНИЯ ТЮРКСКОГО МИРА 21

Xurshid Sirojiddinovich JUMANAZAROV

TURKISTON O‘LKASIDA MUSTAMLAKA TIBBIYOTINI O‘RNATISHDAGI IJTIMOIIY
MUAMMOLAR 28

Ülkər HƏSƏNOVA

1926-CI İL I TÜRKOLOJİ QURULTAYIN TARİXİ ƏHƏMİYYƏTİ 34

Türkan MAHMUDZADƏ

TÜRKOLOJİ QURULTAYIN TÜRKCÜLÜYÜN İNKİŞAFINDA ROLU 43

RAHMONOVA Parvina

HINDISTON HUKMDORLARINING SAMARQANDGA TUHFASI 52

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

Baxtiyor ABDUSHUKUROV

KUL TIGIN BITIGTOSHI VA O‘ZBEK TILI SHEVALARI 59

Tagandurdy BEKJAYEV

TÜRKMEN DİLİNDE TAKVİMLE İLGİLİ KİŞİ ADLARI 66

ALLAMBERGENOVA Muqaddas Ruslanovna

O‘RXUN-ENASOY OBIDALARI LEKSIK QATLAMINING HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY
TILI FONETIK-SEMANTIK TIZIMIDA AKS ETISHI 72

SHUKUROV Ahad Axmatovich

ARXAIZMLARNING LINGVO-USLUBIY IMKONIYATLARI 81

BARZIYEV Oybek Xabibullayevich

ANDIJON ZILZILASI TAFSILOTLARIGA BAG‘ISHLANGAN AN‘ANAVIY SHE‘RIY
ASARLAR TAHLILI 90

MAMAJONOV Muhammadjon, OMONIDDINOVA Durdonaxon

PRAGMALINGVISTIKA VA TILSHUNOSLIKDA KO‘P MA‘NOLILIK MUAMMOSI 96

KARIMOVA Dilafro‘z Obidjonovna

AKADEMIK AHMADALI ASQAROVNING YETUK ARXEOLOG SIFATIDA
SHAKLLANISH YO‘LI 102

DJUMAMURATOV Kuanishbay

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI KOLORATIV BIRLIKLI FRAZEOLGIZM-
LARNING KOMPONENTLI TAHLILI 113

Aynur CƏFƏROVA

AZƏRBAYCAN VƏ TÜRKIYƏ TÜRKCƏLƏRİNİN TERMİNOLOGİYASININ
İNKİŞAFINDA BİRİNCİ TÜRKOLOJİ QURULTAYIN ROLU 122

Nərmin RƏHİMOVA

BİRİNCİ TÜRKOLOJİ QURULTAYDA ƏLİFBA VƏ DİL MÖVZULARI TÜRK
XALQLARININ ORTAQ PROBLEMI KIMI 131

Valida SHIKHALIYEVA

TÜRKOLOJİ QURULTAYDA ORTAQ DİL MƏSƏLƏSİ DÜNƏN VƏ BÜGÜN 139

ESHMIRZAYEV Bahodir Djurayevich, ISMOILOV Behruzjon Isroilovich

ANTROPONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI 150

RO‘ZIYEV QAHRAMON KUZIMURATOVICH

O‘ZBEK TILIDA “NON” KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI 154

NABIYEVA Nodira Saidovna

LIRIKADA ILTIJO KONSEPTINI IFODALAYDIGAN JANRLAR 162

Nilufar NORPO‘LATOVA

SAMARQANDNING TARIXIY NOMLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR 168

MELIBAYEVA Soxibaxon

O‘ZBEK ANTROPONIMLARI PRETSEDENT BIRLIK SIFATIDA 176

RAHMATOVA Sevara Alisherovna

ESHQOBIL SHUKUR SHE‘RLARIDA TAKRORNING MATN QISMLARINI
BOG‘LASHDAGI ROLI 183

AZIZ MUSHTARIY!

2025-yilda qadrlı mushtariylarini 1-soni bilan mamnun qilgan “Turkologik tadqiqotlar” jurnali hay’ati sifatida, sharqona yangi yilimizning Turk dunyosi va butun insoniyat uchun tinchlik, farovonlik va muvaffaqiyatlarga to’la bo’lishini tilaymiz. Bu sonimizda “Turk dunyosi birligida O’zbekiston va Ozarbayjon aloqalarining ahamiyati”, “Turkiy tillar va Ozarbayjon terminologiyasi rivojida birinchi turkologiya qurultoyining o’rni”, Turkman tilida taqvimlar bilan bog’liq shaxs ismlari”, “O’rxun-Enasoy obidalari leksik qatlamining hozirgi o’zbek adabiy tili fonetik-semantik tizimida aks etishi”, “Birinchi Turkologiya qurultoyida mushtarak alifbo va til mavzulari turkiy xalqlarning umumiy muammosi sifatida” kabi bir qator til, madaniyat, tarix, terminologiyaga oid mavzular kiritilgan. Qardosh mamlakatlardagi olimlarning turkologik tadqiqotlar haqida yozgan maqolalari va ilmiy faoliyatlari, xalqlarimiz o’rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi ko’prik vazifasini o’taydi. Umid qilamizki, turk dunyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalari soha mutaxassilari, doktorant va magistrantlar, yosh tadqiqotchilar uchun foydali bo’ladi...

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

As the board of the journal "Turkological Studies," which pleased its valued subscribers with its first issue in 2025, we wish that our oriental new year will be full of peace, prosperity, and success for the Turkic world and all humanity. This issue includes several topics related to language, culture, history, and terminology, such as "The importance of relations between Uzbekistan and Azerbaijan in the unity of the Turkic world," "The role of the First Turkology Congress in the development of Turkic languages and Azerbaijani terminology," "Personal names associated with calendars in the Turkmen language," "Reflection of the lexical layer of Orkhon-Enasoy monuments in the phonetic-semantic system of the current Uzbek literary language," "Common alphabet and language topics as a common problem of the Turkic peoples at the First Turkology Congress." Articles and scientific activities of scientists from fraternal countries on Turkological studies serve as a bridge that strengthens ties between our peoples. We hope that the research results conducted in the Turkic world will be helpful for specialists in the field, doctoral and master's students, and young researchers...

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

2025 yilının 1. sayisiyla siz deęerli okurlarımızı memnuniyetle karřılayan “Türkolojik Arařtırmalar” dergisinin yönetim kurulu olarak, Yeni Yılımızın Türk dünyası ve tüm insanlık için barış, refah ve başarılarla dolu olmasını diliyoruz. Bu sayımızda, “Özbekistan-Azerbaycan İliřkilerinin Türk Dünyası Birlięi Açısından Önemi”, “Türk Dilleri ve Azerbaycan Terminolojisinin Geliřiminde Birinci Türkoloji Kongresi'nin Rolü”, “Türkmen Dilinde Takvimlerle İlgili Kiři Adları”, “Orhun-Yenisey Abidelerindeki Sözcükler Katmanının Modern Özbek Edebi Dilinin Fonetik-Semantik Sistemine Yansıması”, “Türk Halkların Genel Sorunu Olarak Birinci Türkoloji Kongresi'nde Ortak Alfabe ve Dil Konuları”, Özbekistan'ın Küresel Başarılarına Sosyokültürel Bir Yaklaşım ve 2024 Yılıının Analizi” gibi dil, kültür, tarih ve terminolojiye ilişkin pek çok konu yer almaktadır. Kardeş ülkelerdeki bilim adamlarının Türkoloji arařtırmaları konusundaki makaleleri ve bilimsel faaliyetleri halklarımız arasındaki baęları güçlendiren bir köprü görevi görmektedir. Türk dünyasında yapılan arařtırma sonuçlarının alan uzmanlarına, doktora ve yüksek lisans öğrencilerine, genç arařtırmacılara faydalı olmasını diliyoruz...

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

Редакция журнала «Тюркологические исследования», радуя своих читателей первым номером в 2025 году, желает, чтобы Восточный Новый год был полон мира, процветания и успехов для тюркского мира и всего человечества. В данный выпуск журнала включен ряд статей на темы, связанные с языком, культурой, историей и терминологией, в частности, «Значение отношений Узбекистана и Азербайджана в единстве тюркского мира», «Роль Первого тюркологического съезда в развитии тюркских языков и азербайджанской терминологии», «Личные имена в туркменском языке, связанные с календарём», «Отражение лексического пласта Урхун-Енисейских памятников в современной фонетико-семантической системе узбекского литературного языка», «Общий алфавит и языковые темы на Первом тюркологическом съезде как общая проблема тюркских народов». Научные статьи по тюркологическим исследованиям и деятельность ученых из братских стран служат мостом, укрепляющим связи между нашими народами. Мы надеемся, что результаты исследований в тюркском мире будут полезны специалистам, докторантам и магистрантам, молодым исследователям...

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

AKADEMIK AHMADALI ASQAROVNING YETUK ARXEOLOG SIFATIDA SHAKLLANISH YO‘LI

KARIMOVA Dilafruz Obidjonovna,

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi

Tarix ilmiy bo‘limi mudiri, (Toshkent, O‘zbekiston)

E-mail: dilafruzkarimova4@gmail.com

 **ORCID:** 0009-0008-9019-3075

 **DOI:** <https://doi.org/10.59251/3060-5318.2025.v1.138.1.3354>

Annotasiya: Maqola O‘zbekistonda arxeologiya ilmining shakllanishi, bu yo‘lda faoliyat olib borgan olimlar haqidagi ma’lumotlar bilan boshlangan. O‘zbek arxeologlarining ustози Yahyo G‘ulomov faoliyatiga e’tibor qaratilgan. Chunki, u bugungi kunning akademik darajasiga yetib kelgan arxeolog olimlarning ustози, birinchi o‘zbek akademik arxeologi sifatida tarixda qolgan. Maqolaning asosiy qismi O‘zbekistonning yetuk arxeologlaridan biri, akademik Ahmadali Asqarovning arxeologiya sohasiga kirib kelish yo‘li, talabalik davridagi ilmga bo‘lgan intilishlari, uning mutaxassis sifatida shakllanish yo‘li, ustozlar maslahatiga amal qilgan holda bugungi kunda jahon tan olgan arxeolog sifatida shakllanishi yoritilgan.

Ahmadali Asqarovning arxeologiya faniga qo‘shgan ilmiy hissasi, arxeologik tadqiqotlar va ularning o‘tkazilgan arxeologik ekspeditsiyalardagi amaliy natijalari, shuningdek, uning keng qamrovli tadqiqot ishlari batafsil bayon etilgan. Olimning ilmiy yo‘nalishlaridagi katta yutuqlari O‘zbekistonning bronza davri yodgorliklari bilan bog‘liq bo‘lib, Zamonbobo, Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari orqali arxeologik merosi tahlil qilinish, O‘zbekiston madaniy-tarixiy yodgorliklarini o‘rganishga qo‘shgan hissasi ko‘rsatilgan. Akademik bilan o‘tkazilgan ijodiy suhbatlar natijasida olingan axborotlariga asoslangan holda, maqolada uning faoliyatini va arxeologiya sohasidagi yutuqlarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, Samarqanddagi Arxeologiya institutini tashkil etishda Ahmadali Asqarovning tashabbusi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *arxeologiya, olim, Ahmadali Asqarov, ilm, Arxeologiya instituti, bronza davri, yodgorlik, dehqonchilik madaniyati, sopol buyumlar, topilma.*

ПУТЬ ФОРМИРОВАНИЯ АКАДЕМИКА АХМАДАЛИ АСКАРОВА В КАЧЕСТВЕ ВЕДУЩЕГО АРХЕОЛОГА

Аннотация: Статья начинается с информации о формировании археологической науки в Узбекистане и учёных, которые вели деятельность на этом пути. Внимание уделено деятельности учителя узбекских археологов Яхё Гулямова, потому что он остался в истории как наставник ученых-археологов, достигших сегодняшнего академического уровня, первый узбекский археолог академического уровня. Основная часть статьи посвящена вхождению в область археологии одного из ведущих археологов Узбекистана, академика Ахмадали Аскарова, его стремлениям к знаниям в студенческие годы, становлению как специалиста и всемирно признанного археолога, следуя советам своих учителей.

Подробно описаны научный вклад Ахмадали Аскарова в науку археологии, археологические исследования и их практические результаты в проведенных археологических экспедициях, а также его обширные исследовательские работы. Большие достижения учёного в научных направлениях связаны с памятниками бронзового века Узбекистана, на примере памятников Заманбаба, Сапаллитепа и Джаркутан

проанализировано археологическое наследие, подчеркивается вклад в изучение культурно-исторических памятников Узбекистана. Основываясь на информации, полученной в результате творческих бесед с академиком, в статье проанализирована его деятельность и достижения в области археологии. Кроме того, в статье показана инициатива Ахмадали Аскарлова в создании Археологического института в Самарканде.

Ключевые слова: археология, ученый, Ахмадали Аскарлов, наука, Институт археологии, бронзовый век, памятник, земледельческая культура, керамические изделия, находка.

THE PATH OF ACADEMICIAN AHMADALI ASKAROV'S FORMATION AS A DEVELOPED ARCHAEOLOGIST

Abstract: The article begins with information about the formation of archaeological science in Uzbekistan and the scientists who carried out activities in this direction. Attention is paid to the work of Yahya Gulyamov, the mentor of Uzbek archaeologists. He remained in history as a mentor to archaeologist scholars who have reached today's academic level, the first Uzbek academic archaeologist. The central part of the article is dedicated to the entry into the field of archaeology of one of the leading archaeologists of Uzbekistan, academician Ahmadali Asqarov, his striving for knowledge during his student years, his development as a specialist, and his becoming a world-renowned archaeologist following the advice of his teachers.

The scientific contribution of Ahmadali Askarov to the field of archaeology, his archaeological research and practical results obtained from the archaeological expeditions, and his extensive research work are described in detail. The scientist's significant achievements in scientific fields are related to the Bronze Age monuments of Uzbekistan, and through the monuments of Zamanbaba, Sapallitepa, and Jarkutan, the archaeological heritage is analyzed, emphasizing the contribution to the study of the cultural and historical monuments of Uzbekistan. Based on information obtained through creative conversations with the academician, the article analyzes his activities and achievements in archaeology. The article also highlights Ahmadali Askarov's initiative in establishing the Archaeological Institute in Samarkand.

Key words: archaeology, scientist, Akhmadali Askarov, science, Institute of Archaeology, bronze Age, monument, agricultural culture, ceramics, find.

Kirish. Arxeologiya fani dunyo miqyosida katta tarixiy taqdirga ega, o'z shakllanish va taraqqiyotining uzoq yo'lini bosib o'tgan ijtimoiy gumanitar fan sohalaridan biridir. Manbalardan ma'lumki, insoniyat antik davridayoq qadim o'tmish tarixga, moddiy madaniyat va san'at namunalarini o'rganishga qiziq boshlagan. Yurtimiz miqyosida olsak, XIX asrning so'nggi choragidan boshlangan Turkiston arxeologiyasini o'rganish ishlarida mahalliy ziyolilar vakillari ham qatnashib, muayyan malaka va tajriba to'play boshlashgan.

Asosiy qism. Toshkent shahrida V.V.Bartold tashabbusi bilan o'lkaning tarixini o'rganishga qiziqqan tashabbuskor insonlarni birlashtiruvchi Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi (TAHT) 1895-yilning 11-dekabrida tashkil etildi [1, – V. 1]. 1986-yil 22-dekabrda uning a'zolari soni 47 kishiga etgan [2, – S. 45]. Ushbu to'garak ham o'lka qadimshunosligini o'rganishga hissa qo'shgan ilmiy – jamoatchilik tashkiloti sifatida tarixda qolgan. Amalda 1917 yilgacha faoliyat ko'rsatgan to'garakning asosiy vazifasi Turkiston o'lkasidagi qadimiy yodgorliklar, sharq qo'lyozmalari, tarix, adabiyot, tabobatga oid nodir kitoblar, numizmatika va etnografiyaga oid topilma va kolleksiyalarni qayd qilish, hisobga olish va o'rganishdan iborat edi [3, – B. 9-10].

Mazkur to‘garakda N.P. Smirnov, I.T. Poslavskiy, V.A. Kallauer, M.S. Andreev, Y.T. Smirnov, N.G. Mallitskiy, A.A. Divaev, N.N. Pantusov, A.A. Semyonov va boshqalar faol ishtirok etgan edilar [2, – S. 10]. Jamlash va qazish natijasida to‘plangan arxeologik hamda numizmatik ashyolar TAHT a‘zolari tomonidan muzeylarga topshirilgan [4, – B. 46-47].

Arxeologiya tarixiy moddiy manbalar asosida insoniyatning qadimiy o‘tmishini o‘rganuvchi fandir. Moddiy manbalarining o‘ziga xos xususiyatlari ularning alohida mutaxassislar, ya’ni arxeologlar tomonidan o‘rganilishini zarur qilib qo‘yadi.

Tarixda hech narsa izsiz yo‘qolib ketmaydi. Tarixiy voqeadan arxivda va solnomalarda hech qanday iz qolmasligi mumkin, ammo erda albatta uning izi qoladi, bu manbalar bitmas-tuganmasdir, ana shu izni topish arxeologiyaning vazifasidi [5, – S. 3-7]. Insoniyat hamisha qaysidir ko‘rinishlarda ba‘zan o‘zi bilib, ba‘zan bilmagan holda qadimgi yodgorliklar va u erdan topiladigan topilmalarga qiziqadi. Buning uchun tarixchi bo‘lish shart emas. Bu ularning o‘z qadimiy tarixiga bo‘lgan ichki qiziqishi, intilishi, desak ham bo‘ladi. Endi, bu sohaning asl mutaxassislarida qadim o‘tmish tarixni o‘rganishga qanchalik ishtiyoq bo‘lishini, tasavvur qilish qiyin emas.

Endi, O‘zbekiston hududida arxeologiya fan sifatida, ilm sifatida shakllanishni boshlagan davr haqida, uning uchun xissa qo‘shgan insonlar haqida aytib o‘tish joiz. Ma’lumki, birinchi o‘zbek akademik arxeologi, Yaxyo G‘ulomovich G‘ulomov o‘zining ko‘p yillik arxeologik ilmiy faoliyati davomida O‘zbekiston hududlarida qator tadqiqotlar olib borib, O‘zbekiston hududi insoniyat tarixining barcha davrlariga xos yodgorliklarga boy o‘lka, bu zaminda ibtidoiy jamoa tuzumining eng qadimgi tosh davri, mezolit va neolit, eneolit va bronza, ilk temir va antik davr, ilk va rivojlangan o‘rta asrlar davri yodgorliklari mavjud, ularni qidirish, topish va o‘rganish zarurligini, xronologik ketma-ketlikda, ilmiy tizimga solib o‘rganish kerakligini qayta-qayta ta’kidlar edilar [6, – B. 2].

O‘tgan asrning 20-yillarida mamlakatimiz o‘z boshidan og‘ir damlarni kechirayotgan bir paytda birinchi o‘zbek arxeologi Yahyo G‘ulomov o‘zi mehr qo‘ygan fan sohasi, tariximizning eng qadimgi davrlari bilan shug‘ullanishga imkon topdi. Shu tufayli taqdir uni o‘sha davr O‘rta Osiyo arxeologiyasi sohalarida mehnat qilayotgan olimlar sharqshunos V.Vyatkin, M.E.Masson, A.Yu. Yakubovskiyilar bilan uchrashtirgan bo‘lsa ajab emas [7, – B. 14]. Ya.G‘ulomovning ilmga bo‘lgan qiziqishini sezgan V.Vyatkin arxeologiyaga tortish va dala ishlari metodi bilan tanishtirish maqsadida Afrosiyobdagi o‘z qazishlariga olib chiqa boshlaydi [7, – B. 15]. Balki shu tufayli Yahyo G‘ulomovda arxeologiya faniga qiziqish uyg‘ongandir.

Ya.G‘ulomov tomonidan yaratilgan asarlar o‘zbek tarixshunosligida yangi ilmiy yo‘nalish va ilmiy maktabga asos solgan birlamchi ma’lumotlarga boy manba bo‘lib, hozirgacha o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotgan emas [8, – B. 4].

V.Vyatkin Yahyo G‘ulomovga qazib ochilgan arxeologik yodgorliklardan tarixiy jarayonlarni ochib berishda birinchi darajali manba sifatida foydalanish usullarini o‘rgatar edi [9, – B. 9]. Ushbu fanni chuqur egallar ekan, Yahyo G‘ulomov – birinchi o‘zbek arxeologi sifatida tarixda qoldi. Bir paytlar o‘z sohasining etuk mutaxassislariga shogird bo‘lgan, ilm sirlarini va uning mashaqqatli yo‘llarini bilishga intilgan Yahyo G‘ulomov endi o‘zi ustoz edi. O‘zidan etuk olim, akademik darajalariga erishgan shogirdlar qoldirdi. Bular sirasiga A.Asqarov, O‘.Islomov, A.Muhammadjonovlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O‘z maktabi va shogirdlari faoliyatidan mamnun bo‘lgan Yahyo G‘ulomovning tarix va arxeologiya fanlari ravnaqi yo‘lida orzulari ko‘p va rejaları nihoyatda keng bo‘lganligi shubhasiz. Ularni ro‘yobga chiqarish esa ko‘p yillarni talab qilgandir. Yahyo G‘ulomov yaratgan ilmiy maktab bugungi kunda ildiz otib, uning

shogirdlari tomonidan chuqurlashib, yanada takomillashib bormoqda. O‘z shogirdlarining akademik darajasiga ko‘tarilganini ko‘rganlarida, qanchalar sevingan, faxrlangan bo‘lishlarini xatto ko‘z oldimizga keltirish ham qiyin.

Biz ushbu maqolada asosiy urg‘uni Ya.G‘ulomovga emas, uning izidan borgan, shogirdi akademik Ahmadali Asqarovning arxeologiya ilmining shakllanishg qo‘shgan xissasi haqida ma‘lumot bermoqchimiz.

Ahmadali Asqarov talabalik yillaridagi hayoti, turmush-tarzi, o‘z ustida muntazam, samarali ishlash, fan sirlarini egallash uchun “talabalik oltin davri” ni haqiqiy “oltin” ga qiyoslab tashkil etdi. Institut auditoriyalarida tarix ilmining dolzarb masalalariga oid bo‘lgan ma‘ruzalarni: akademik Yahyo G‘ulomov, tarix fanlari doktori, professor Z.A.Nuriddinov, tarix fanlari doktori Sh.Abdullaev, tarix fanlari nomzodi, dotsentlar: R.M.Boyjonov, A.Q.Qayumov, A.K.Qirg‘izboev, X.Yu.Bekmuhammedov va P.Kotyarlardan tinglab, tarixga bag‘ishlangan tushunchalarini yanada boyitdi [10, – S. 139].

Ilmga bo‘lgan munosabat bo‘lajak olimda keyinchalik ilm-fan sohasida zafarli harakatlar qilish, ilm cho‘qqilarini egallashda muhim omil sifatida xizmat qilgan bo‘lsa ajab emas. Kursdoshlar, hamyurtlar, ulfatlar orasida: *“Ahmadalini ko‘rmadingizmi? – deyishsa, uni albatta kutubxonada yoki qaysidir kafedraning o‘quv zalida bo‘lsa kerak, deb javob berishar edi”* [11].

Talabalik yillarimda o‘zbek arxeologiyasining otasi, taniqli akademik olim Yahyo G‘ulomovning ilmiy ma‘ruzalarini eshitib, menda arxeologiya faniga bo‘lgan qiziqish uyg‘ondi va u kishi bilan bo‘lgan muloqotlar mening keyingi hayot yo‘limni belgilab berdi [12, – B. 19-27].

Olim har bir jabhada halol mehnat tufayli orzulari ushalishiga amin bo‘lib, hayotining mazmuni sifatida shu yo‘lni tanladi. Ilmga bo‘lgan intilish, bo‘lajak olimni poytaxtga etaklaydi. Bu davrda O‘zbekiston FA ning prezidenti akademik Habib Muhammedovich Abdullaev respublika fani taraqqiyotiga yosh olimlarni shakllantirish orqali erishishga harakat qilmoqda edi. *“... Habib Muhammedovich mutaxassisligi geolog bo‘lsada, o‘zbek xalqining tarixiga, kelib chiqish masalalariga juda qiziqar, ilm-fan ravnaqiga kuyunchak, ilmga, ziyoga intilganlarga har doim e‘tiborli va g‘amxo‘r edilar. Shirinsuxan, dilkash, suxbatdoshini o‘ziga rom qilib oladigan alloma edilar”* [13]. Ahmadali Asqarovning ilm-fanga ishtiyoqi Habib Abdullaev, Ibrohim Mo‘minov va Yahyo G‘ulomovdek buyuk allomalar bilan taqdirini bog‘ladi. Ustoz ilm sirlarini o‘rganish maqsadida O‘zbekiston FAning Tarix va Arxeologiya institutiga o‘qishga keldi. Akademik Ya.G‘ulomov yosh Ahmadali Asqarovdagi ilmga bo‘lgan g‘ayrat-shijoatni va arxeologiya faniga bo‘lgan kuchli intilishni anglab, aspiranturada o‘qib, ilmni chuqur egallash kerakligini aytdi.

Ahmadali Asqarov ustoz M. T. Gryaznov rahbarligida “Zarafshon daryosi etaklari bronza davrida” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ishlay boshladi. Ilk bor o‘z tadqiqot ishlarini Buxoro vohasining shimoliy- g‘arbiy mintaqasi, Zarafshon daryosining quyi havzasida, uning Moxondaryo, Gurdish, Gujayli irmoqlari bo‘ylab qachonlardir tashkil topgan ko‘llar atrofida joylashgan bronza davri jamoalarining makoni [14, – S. 265] ni o‘rganishdan boshlagan.

Bu erga dafn etilganlarning qoldiqlari, ularning yoniga qo‘shib ko‘milgan idishlar, turli-tuman ashyolar, zeb-ziynat buyumlari topildi. Ular o‘sha erda yashagan ajdodlarimizning o‘z madaniy hayoti, an‘analariga ega bo‘lganligidan nishonadir. Bu madaniyat arxeologiyaga “Zamonbobo madaniyati” nomi bilan kiritilgan. Zamonboboda o‘rganilgan qabrlar hozirgidek lahat shaklida bo‘lib, ulardagi skeletlar o‘ng va chap yoni bilan xuddi ona qornida yotgan chaqaloq singari g‘ujanak bo‘lib yotar edi [15, – B. 64].

Zamonbobo qabristonining yaqinidan shu madaniyatga tegishli makon topildi. Makon ko‘chma qumlar ostida qolib ketgan bo‘lib, bu uzoq yillar davomida topilmay kelinayotgan Zomonbobo makonidan nishona edi [16, – B. 4]. Darhol bu erda yosh arxeolog Ahmadali Asqarov qazilma ishlarini boshladi. 1961-1964 yillarda o‘tkazilgan qazilmalar vaqtida taqirning bir metrigacha o‘yib ishlangan kattaligi 170 m bo‘lgan er to‘la tipidagi kulba xarobasi, ikkita chayla qoldiqlari, kulolchilik xumdoni va sopol idish parchalari topildi. Makon maydonidan buzilgan o‘choq o‘rinlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qoramol, echki, yovvoyi hayvon suyaklari, qorayib ketgan bug‘doy va arpa donlari, chirigan somon qoldiqlari, ko‘plab tosh qurollar, qimmatbaho toshdan yasalgan har-xil munchoqlar topildi [17, – S. 59-65]. Bu topilmalar Zamonbobo makoni aholisining dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug‘ullanganidan darak beradi. “Zamonbobo madaniyati” mil.avv. II ming yillikning boshlariga oid ekanini yosh arxeolog asoslab berdi. Bu ilmiy ishlarning natijalari Ahmadali Asqarovning 1961-1968 yillarda nashr etilgan monografiya, maqolalarida va ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan [18].

Ahmadali Asqarov “Zamonbobo madaniyati”ga oid ilmiy tadqiqotlarini o‘zining “Zarafshonning quyi oqimi bronza davrida” nomli nomzodlik ishida umumlashtirdi. Ahmadali Asqarov to‘rt yillik tadqiqoti natijasi bo‘lgan bu dissertatsiyani SSSR FA ning Arxeologiya instituti Ilmiy kengashida 1963 yilning 9 yanvarida muvaffaqiyatli himoya qilgan. Bu xizmati uchun institut Ilmiy kengashi Ahmadali Asqarovga tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini berdi.

Har yili bahor mavsumida ustoz Ya.G‘.G‘ulomov bilan ikki oy O‘zbekistonda, yoz oylarida 2-3 oy ustoz M.P.Gryaznov bilan Sibir dashtlarida arxeologik ekspeditsiyalarda qatnashdim, mustaqil otryad rahbari bo‘lishni o‘rgandim. Taniqli arxeolog V.M.Masson bilan Janubiy Turkmaniston arxeologik ekspeditsiyalarida, bronzashunos V.I.Sarianidi bilan sobiq Sovet davlatining Afg‘onistondagi arxeologik ekspeditsiyalarida qatnashib, nazariy bilimlarimni dala amaliyotlarida mustahkamlab bordim. Bularning hammasi o‘z-o‘zidan bo‘lgan emas, balki tinimsiz halol mehnat, fandagi yangiliklarni muntazam kuzatib borish va hayotda qat’iy ilmiy pozitsiyali bo‘lishga intilishlar tufayli erishildi. Bu borada ustozlarim professor M.P.Gryaznov, akademik Ya.G‘.G‘ulomov, akademik I.M.Mo‘minovlardan olgan saboqlarim beqiyos menga ilmiy va ruhiy yordam berdi, o‘sha kezlardagi akademiyamiz prezidenti H.M.Abdullaevning biz yoshlarga bergan o‘gitlari va xizmatlari katta bo‘lgan [19].

Olim ustози M.P. Gryazovni xotirlar ekan, quyidagilarni ta’kidladi: “ular bilan har kuni institutda uchrashishdan tashqari, bir haftada uch, ba’zida to‘rt kun kvartirasiga kelib, kitob jovonlari orasida yotib qoladigan bo‘ldim. Domlam kechalari kam uxlar edi, unga ergashib kechalari kitob mutola qilib, lug‘atdagi kerakli so‘zlarni yodlash bilan astaydil shug‘ullandim. Kundan-kunga menda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar tufayli asta-sekin ustozlar ishonchini qozonib, ular oilasining chinakkam bir a’zosiga aylanib qoldim. 1959 yil may oyida Moskvada o‘tkazilgan butunittifoq arxeologlar sessiyasiga Toshkentdan ustoz Ya.G‘.G‘ulomov ham keldilar. Biz o‘zbekistonlik aspirantlar ham Leningraddan sessiyaga etib keldik. Sessiyaning O‘rta Osiyo arxeologiyasiga bag‘ishlangan sho‘‘basida, birinchi bor rus tilida qilgan dokladlarimizni eshitgan ustoz Ya.G‘.G‘ulomov otalarcha quvondi. Leningraddan kelgan ustozlarimizning dasturxon atrofida ahloq-odobimiz, o‘qishdagi ilk yutuqlarimiz haqidagi so‘zlarini eshitgach, ustoz yanada quvonib ketdilar. Biz hayot ekanmiz, bu onlarni hech qachon unutmaymiz va yosh avlodga etkazishga harakat qilamiz [20, – B. 53-54].

Ahmadali Asqarovning ilmiy faoliyatidagi etakchi yo‘nalishlardan yana biri Janubiy O‘zbekiston qadimgi Baqtriya hududlaridagi bronza davri yodgorliklarini o‘rganilishi, ularning qadimgi Sharq tsivilizatsiyasida tutgan o‘rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat bo‘ldi. Shu

munosabat bilan 1969-74 yilda olim maxsus ekspeditsiya uyushtirib, uning faol qatnashchisi va doimiy ilmiy-rahbari bo‘lib qoldi [20, -B. 53-54]. Milloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi choragida Ulanbuloqsoyning quyi havzasida qadimgi dehqon jamoalarining qishlog‘i qad ko‘taradi. Ana shu qishloq xarobolari aholi orasida Sopollitepa deb yuritiladi. *“Sopollitepani qazish vaqtida xom g‘ishtdan qurilgan ko‘p xonali uy joy qoldiqlari, toshdan, bronzadan, suyakdan yasalgan turli shakl va ko‘rinishdagi mehnat qurollari, uy ro‘zg‘or buyumlari, xo‘jalikda, harbiy ishda, ovchilik vaqtida, zirotchilik va hunarmandchilikda ishlatiladigan qurollar, sopol idishlar, turli taqinchoq va bronzalar, urug‘ va qabila muhrlari, tamg‘alari topildi-ki, ularning ishlanish texnikasiga qarab Sopollitepa aholisining o‘z davrida yuksak madaniy xo‘jalik rivojiga erishganligining guvohi bo‘lamiz”* [21]. Sopollitepada urug‘ jamoa a‘zolari olamdan o‘tsa, uni o‘zi yashab turgan uyni ostiga ko‘milgan, agar vafot etgan inson nufuzli obro‘ga ega bo‘lsa uni asosiy topinish xonasining o‘rtasida joylashgan.

Muallif 1969 yildan e‘tiboran bir necha arxeologik yodgorliklarni o‘rganib, ularni chuqur tadqiq etdi. Sopollitepa yodgorligi to‘liq ochib o‘rganildi. Bunday holat arxeologiya fanida kamdan-kam uchraydi. Sopollitepa nafaqat boy topilmalari bilan, balki boshqa yodgorliklarni o‘rganishda ham o‘ziga xos noyob «etalon» yodgorlik bo‘lib xizmat qildi [22, – S. 172.; 23, – S. 232]. Pshaktepa, Kuchuktepa, Jarqo‘ton, Bo‘ston kabi qadimgi shahar va qishloq qoldiqlari, ular bilan bog‘liq dafn marosimlari tizimli ravishda o‘rganilib, Markaziy Osiyo arxeologiyasida o‘z o‘rnini topdi. Olimning Janubiy O‘zbekiston yodgorliklarida olib borgan uzoq yillik izlanishlari natijasi 6 ta ilmiy monografiya va 100 dan ortiq ilmiy risola va maqolalarda umumlashtirildi.

Sopollitepada hayot taxminan ikki yuz yillar davom etgan. Yangi erlar o‘zlashtirish maqsadida, uning aholisi sharqqa tomon siljiydi va hozirgi Sherobod tumani hududiga ko‘chib o‘tadi. Bu erda 100 gekardan ortiq maydonni egallagan Jarqo‘ton yodgorligi qad ko‘targan.

Sopollitepadagi qazish ishlari o‘z yakuniga etayotgan kezlarda, ya‘ni 1973 yil Ahmadali Asqarov tomonidan Jarqo‘ton yodgorliklarida arxeologik izlanishlar boshlanib ketdi.

Birinchi navbatda, yodgorlik joylashgan maskanni Jarqo‘ton deb atalishiga sabab bo‘lgan omilga to‘xtalib o‘tsak. Keksalarning guvohlik berishlariga qaraganda, 1950 yillarning boshlarida shu joyda Bo‘stonsoy jarlari ustida Guliston jamoa xo‘jaligining yirik shoxli hayvonlari uchun bir necha chorva qo‘tonlari barpo etilib, shundan boshlab atrof aholi bu joyni jardagi qo‘ton, ya‘ni Jarqo‘ton deb atay boshlagan ekanlar [24, – B. 4.; 25, – S. 8].

Qadimgi Baqtriya davlatining o‘q ildizi hisoblangan Sopollitepa madaniyati urbanistik jarayonlari xronologik jihatdan ketma-ketlikda joylashgan Sopollitepa, Jarqo‘ton, Ko‘zaliqir, Mo‘lali hamda Bo‘ston kabi nomlar bilan 5 ta tarixiy bosqichlarni bosib o‘tganligi isbotlangan [25, -S.32-44.; 26, -S.136-140]. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarixiy bosqichlarning har biri o‘ziga xosligi bilan ajralib, avvalo sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik madaniyatining jadal rivojlanishi, bronzadan yasalgan mehnat qurollari samaradorligining ortib borishi, savdo-sotiqning yo‘lga qo‘yilishi va boshqa ko‘plab omillar iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlab bordi. Bu esa sopollitepalik dehqon va hunarmand aholisini yangidan yangi erlarni o‘zlashtirishga chorlab bordi.

Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlarda Jarqo‘ton ibodatxonasi ilk zardushtiylikka o‘tish davri uchun xarakterli, deb topilib, zardushtiylikning to‘rt unsurlari asoslab ko‘rsatilgan [27, -B. 111-128.; 28, – B. 80-86].

Bu erni oqqo‘rg‘onliklar “Jarqo‘ton” deb atashadi. Jarqo‘tonda qazilma ishlari 1973 yilda Ahmadali Asqarov tomonidan boshlanib, uning shogirdlari va kasbdoshlari tomonidan hozirgi davom etib kelmoqda [29, – B. 150]. Uning o‘rganish ishida turli yillarda chet ellik mutaxassislar o‘zbek arxeologlari bilan hamkorlikda qatnashib kelmoqda. Topilgan artefaktlarning davriy

